



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
IV chorak geografiya fanidan

DARS

ISHLANMALAR

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 7-sinflar uchun geografiya fanidan IV chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Tabiiy geografik o‘lkalari va aholisining tabiatga ta’siri.	1		
2.	Shimoliy Muz okeani.	1		
3.	Umumlashtiruvchi dars.	1		
4.	Yevrosiyoning geografik o‘rni, o‘rganilishi	1		
5.	Geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relyefi	1		
6.	Yevrosiyo iqlimi.	1		
7.	Yevrosiyoning iqlim mintaqalari.	1		
8.	4-BSB (50 ball)			
9.	Yevrosiyoning ichki suvlari.	1		
10.	Amaliy mashg‘ulot.	1		
11.	Yevrosiyoning tabiat zonalari.	1		
12.	Yevrosiyo aholisi va uning tabiatga ta’siri.	1		
13.	Yevrosiyo hududining tabiiy geografik o‘lkalarga bo‘linishi.	1		
14.	Amaliy mashg‘ulot.	1		
15.	4-CHSB (40 ball)	1		
16.	Umumlashtiruvchi dars.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Tabiiy geografik o'lkalari va aholisining tabiatga ta'siri

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiati, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, geografiya fani va uning tarmoqlari, qadimgi va hozirgi zamon geografik tadqiqotlari, ularning mazmun-mohiyati, zamonaviy geografik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, geografik xaritalar, ularning turlari va xaritalardan foydalanish, geografik koordinatalar, ulardan kundalik hayotda foydalanish masalalari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'ltiq va bo'g'izlar tabiati bilan yaqindan tanishtirish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: geografik qobiq, uning tuzilishi va xususiyatlari, geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar sayyoramiz iqlimini mo'tadillashtirib, quruqlikni suv bilan ta'minlashda qatnashuvchi dunyo okeani, dengizlar, ulardagi suvning xususiyatlari va materiklar tabiati shakllanishida okeanlarning ahamiyatini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

muntazam ravishda o'z bilimini oshirishda geografik manbalar bilan mustaqil tarzda ishlay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

maktab, mahallasida olib borilayotgan tadbirlarda maqsad yo'lida faol ishtirok etish, muomala madaniyatga ega bo'lish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Tabiiy geografik o'lkalari. Shimoliy Amerika tabiatining xilmaxilligi uni 4 ta yirik qism — tabiiy geografik o'lkalarga bo'lishga imkon beradi. Bular — Arktika orollari, Sharq, Kordilyera tog'lari, Markaziy Amerika. O'z navbatida, bu o'lkalar ko'pgina tabiiy geografik kichik o'lkalarga ajratilgan. Arktika orollaritabiiy geografik o'lkasi Grenlandiya, Kanada-Arktika arxipelagini o'z ichiga oladi. Mazkur hudud tabiiy sharoitining noqulayligi (qahraton sovuqligi) bilan ajralib turadi. Asosan, tekisliklardan iborat Sharq o'lkasining o'ziga xos xususiyati, hududning tekisligi va shuning oqibatida geografik zonalarining yaqqol aks etganligidir. Bu o'lkada Lavrentiy qirlari, Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar, Appalachi tog'lari, Qirg'oqbo'yi tekisliklari joylashgan. Kordilyera tog'lari o'lkasiesa Alyaska va Kanada Kordilyerasi, AQSH Kordilyerasi, Meksika yassitog'ligining shimoliy qismidan iborat.

Alyaska va Kanada Kordilyerasi (-rasm). Alyaska bir necha parallel joylashgan tog'lardan tashkil topgan bo'lib, ular bir-biridan chuqur vodiylar bilan ajralib turadi. Materikning eng baland cho'qqisi Denali (Mak-Kinli, 6194 m) shu yerda joylashgan (110-rasm).



110-rasm. Alyaska va Kanada Kordilyerasi tog'lari

Alyaska yarimorolida va Aleut orollarida kuchli zilzilalar bo'lib turadi, o'nlab harakatdagi va so'ngan vulqonlar bor. Bu tog'lardan oltin, kumush, rangli metallar, neft va toshko'mir qazib olinadi. Alyaska va Kanada Kordilyera tog'larining g'arbiy sohilida dengiz iqlimi hukmron bo'lganligidan ko'p yog'ing yog'adi. Shu sababli ignabargli qalin o'rmonlar o'sadi. Ichki yassitog'liklarda tog'-tundra o'simliklari rivojlangan. Tog' tundralarda shimol bug'usi, qutb tulkisi, lemminglar yashaydi. O'rmonlarda los, grizli ayig'i, puma, qoplon, tog' qo'yi uchraydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

- 1 Shimoliy Amerika tabiiy geografik o'lkalari qanday tabiiy geografik kichik o'lkalarga bo'linadi?
- 2 Ayting-chi, nima uchun Alyaska yarimoroli va Aleut orollarida kuchli zilzilalar bo'lib, vulqonlar otilib turadi?
- 3 Materikning qaysi qismida aholi eng zich joylashgan? Bunga qanday sabablarni asos sifatida ko'rsata olasiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Shimoliy Muz okeani

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiati, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, geografiya fani va uning tarmoqlari, qadimgi va hozirgi zamon geografik tadqiqotlari, ularning mazmun-mohiyati, zamonaviy geografik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, geografik xaritalar, ularning turlari va xaritalardan foydalanish, geografik koordinatalar, ulardan kundalik hayotda foydalanish masalalari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'ltiq va bo'g'izlar tabiati bilan yaqindan tanishtirish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: geografik qobiq, uning tuzilishi va xususiyatlari, geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar sayyoramiz iqlimini mo'tadillashtirib, quruqlikni suv bilan ta'minlashda qatnashuvchi dunyo okeani, dengizlar, ulardagi suvning xususiyatlari va materiklar tabiati shakllanishida okeanlarning ahamiyatini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, o'zining mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish, loyihalarni tuzish va himoya qila olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko‘zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Asosiy xususiyatlari. Shimoliy Muz okeani eng kichik (14 mln km²), eng sayoz (o‘rtacha chuqurligi 1225 m), eng sovuq, materik sayozligi (shelf) maydoni bo‘yicha eng birinchi (45%), iqlim va tabiat mintaqalari eng kam, eng katta oroli bor (Grenlandiya), Shimoliy qutb atrofida joylashgan, ko‘p yillik muzlar bilan qoplangan, uzoq vaqt qutb tunlari (189 kun) va kunlari (178 kun) bo‘lib turadigan, qo‘yho‘kiz, oq ayiqlar yashaydigan, dengizlari okean maydonining deyarli yarmini egallaydigan okeandir. Geografik o‘rni. Okean Arktikaning markaziy qismida joylashgan. Uni ikkita materik o‘rab turadi. Bering bo‘g‘izi orqali Tinch okean bilan, Skandinaviya yarimoroli — Faryer, Islandiya va Grenlandiya orollari — Smit bo‘g‘izi — Kanada arxipelagi orqali Atlantika okeani bilan chegaralanadi. Qirg‘oqlari ancha parchalangan. Orollari ko‘p, Grenlandiya, Qirolicha Yelizaveta, Viktoriya, Novaya Zemlya, Severnaya Zemlya va boshqalar shular jumlasidandir. Maydoni 14 mln km².

O‘rganilishi. Okean to‘g‘risidagi birinchi ma‘lumotni yunon olimi Pifey (mil. av. 325- yil) yozgan va “Qayrilgan dengiz” deb nom bergan. Keyinchalik yevropaliklar Giperborey (yunoncha, Borey— shimoldagi shamollar xudosi) deb atashdi. B. Varenius 1650- yilda mustaqil okean tariqasida ajratdi. XIX asrning boshlarida ichki dengiz sifatida Atlantika okeani tarkibiga kiritildi. London geografiya jamiyati 1845- yilda, Xalqaro gidrografik byuro 1928- yilda, Rus geografiya jamiyati 1936- yilda Shimoliy Muz okeanini mustaqil okean tariqasida ajratishga qaror qildilar. Okeanni o‘rganishda Pyotr I, M. Lomonosov, shved olimi N. Nordensheldlar tashkil etgan ekspeditsiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, XIX asr oxirida F. Nansen, S. Makarov (1899- y.), R. Piri (1909- y.) Shimoliy qutbni birinchi bo‘lib zabt etdi, R. Amundsen (1903–1906- y., 1918–1920- y.) va boshqalar qimmatli ma‘lumotlar to‘pladi. Hozirgi paytda Rossiya, AQSH va Kanada mutaxassislari Shimoliy Muz okeanining tabiatini o‘rganishmoqda.



Oq ayiq



Tyulen



Morj

Okean shelfi (materik sayozligi)da ulkan neftva gaz konlari aniqlangan. Olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, butun dunyo neft va gaz zaxiralarining 22% i Shimoliy Muz okeani shelfida to‘plangan. Barents, Norvegiya dengizlari shelfida, Alyaska qirg‘oqlari yaqinida, shimoli-sharqiy Grenlandiya qirg‘oqlari yaqinidagi shelfda neftva gazkonlari bor.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

- 1 Okean tubi relyefining asosiy shakllarini sanab bering. Ularning bir-biriga nisbatan joylashuvini tahlil qiling.
- 2 Global iqlim o‘zgarishi Shimoliy Muz okeani tabiatida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

36 listdan iborat geografiya fanidan 7-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi. To'liq holda olganingizdan so'ng: Faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham. Internet orqali vab-saytlarga joylamang. Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**